

Ermat Tilayev

Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani,  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

## AMIR NASRULLOH DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI: MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIGI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Amir Nasrulloh hukmronligi (1827-1860 yillar) davridagi Buxoro amirligining murakkab va ziddiyatli tarixini manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag'ishlangan. Amir Nasrulloh davri Buxoro amirligi tarixida muhim bosqich bo'lib, u markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash, harbiy va ma'muriy islohotlar o'tkazish, shuningdek, tashqi siyosatda keskin o'zgarishlar bilan xarakterlanadi.

**Kalit so'zlar:** Amir Nasrulloh, mang'itlar sulolasi, "Tuhfat al-xoniy", "Tojut-tavorix", "Maxozin ut taqvo", manaqib, tarixnavislik, xronogramma, diniy-tasavvufiy, mutrib, mug'anniy, soqiy, fors-tojik.

## БУХАРСКИЙ ЭМИРАТ ПРИ ЭМИРЕ НАСРУЛЛЕ: ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу сложной и противоречивой истории Бухарского эмирата в период правления Амира Насруллы (1827-1860 гг.) с источниковедческой и историографической точек зрения. Период правления Амира Насруллы явился важным этапом в истории Бухарского эмирата, который характеризовался укреплением централизованной власти, проведением военных и административных реформ, а также резкими изменениями во внешней политике.

**Ключевые слова:** Амир Насрулла, династия Мангидов, "Тухфат ал-Хани", "Таджут-таворих", "Махазин ут таква", манакиб, историография, хронограмма, религиозно-мистический, мутриб, мугани, саки, персидско-таджикский.

## BUKHARA AMIRATE DURING THE REIGN OF AMIR NASRULLOH: SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

**Annotation.** This article is dedicated to the analysis of the complex and contradictory history of the Bukhara Emirate during the reign of Amir Nasrullah (1827-1860) from source studies and historiographical perspectives. The period of Amir Nasrullah's reign was an important stage in the history of the Bukhara Emirate, characterized by the strengthening of centralized power, the implementation of military and administrative reforms, as well as sharp changes in foreign policy.

**Keywords:** Amir Nasrullah, Manghid dynasty, "Tuhfat al-Khaniy", "Tajut-tavorikh", "Makhazin ut taqwa", manaqib, historiography, chronogram, religious-mystical, mutrib, mughani, saqi, Persian-Tajik.

**Kirish (Introduction).** XVIII asr oxiri va XIX boshlarida Buxoroda yaratilgan tarixga oid asarlar asosan mahalliy tarixnavislarga tegishli bo'lib, bunda yozilgan asarlarning mavzusi va uslubi asosan sulola tarixi, uning vakillari faoliyati, hamda ko'pincha siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Ularning aksariyati fors-tojik tilida yozilgan. Bundan tashqari, manaqib (agiografiya) mazmunida yozilgan asarlar va tazkiralarda ham tarixiy mazmundagi ma'lumotlar juda ko'p. Mang'itlar davrida yashab ijod qilgan mualliflarning ko'pchiligi o'z asarlarini hukmron sulola manfaatiga mos tarzda yaratganlar.

Buxoro amirligida tarixnavislik va manbashunoslik masalasi o'ta dolzarb muammo bo'lsada shu vaqtga qadar kompleks o'rganilmagan. Mazkur mavzuga bag'ishlangan adabiyot va tadqiqotlar orasida Anke fon Kyugelgenning "Legitimatsiya sredneaziatskoy dinastii mangitov v proizvedeniyax ix istorikov"[1] nomli ilmiy tadqiqoti ajralib turadi. Muallif bu asarida mang'it sulolasi hokimiyatining qonuniylashuv (legitimlik) jarayonini davr tarixiy asarlari asosida tahlil qilgan va Buxoro muarrixlari asarlari haqida ma'lumot bergan.

**Tadqiqot Metodologiyasi (Methodology).** Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli-strukturaviy, kritik-tahliliy va manbashunoslik metodlari qo'llaniladi. Manbalarni o'rganishda ularning yozilish maqsadlari, mualliflarining dunyoqarashi, davrning siyosiy-ijtimoiy sharoitlari hisobga olinadi. Tarixshunoslik tahlilida esa turli davrlarda yozilgan asarlarda Amir Nasrulloh davriga berilgan baholarning evolyutsiyasi, ulardagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi. Maqola doirasida mavjud ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va maqolalar ham o'rganilib, umumlashtiriladi.

**Tadqiqot Natijalari (Results).** O'rganilayotgan davrda yozilgan eng qadimiy asar Qozi Vafo Karminagiyning "Tuhfai xoniy" (Tuhfat al-xoniy) nomli asari sanaladi. Mazkur asar va muallifi faoliyatining ayrim jihatlarni o'rgangan A.A.Semenov, N.D.Mikluxe-Maklay [1], A.M.Mirzoyev, A.N.Boldir singari olimlar asarni ikkita muallifga nisbat berganlar.

Uning birinchi qismida tarixiy voqealar Muhammad Rahimbiy vafotigacha (1759 yil) bo'lgan davrni qamrab olgan. Asarning keyingi qismi 1768/69 yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Qozi Vafo Karminagi 1769/70 yili (hijriy 1183 y.) 87 yoshida vafot etgan. Uning tarjimai holiga oid ma'lumotlar saqlanmagan. Muallif vafotidan so'ng domullo Olimbek valadi Niyozqulibek eshon asarni 1782 yilgacha bo'lgan voqealargacha davom ettirgan.

2018-yil Tojikistonda chop etilgan "Tuhfai xoniy" asarining so'zboshisida bu haqida shunday tariflangan: "Asar nusxalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, u 72 bobdan iborat bo'lib, har bir bob "zikri" va "dar bayoni" degan so'zlar bilan boshlanadi. Hukmdor va uning lashkari har bir bob subyekti sifatida tilga olingan. Qozi Vafo asari qisqa hamd va sano aytib, voqealar bayonini hijriy 1159 (m.1745) yildan boshlaydi (var.4a)"[2].

"Tuhfai xoniy"ning muallifi Qozi Vafo asarda asosan siyosiy voqealar va isyonchi qabilalar bilan bog'liq ma'lumotlarga ko'proq ahamiyat beradi. Qabilalarning markaziy hukumatga nisbatan bo'lgan munosabatlarini yozganda, u xronologik ketma-ketlikni ham tez-tez buzadi (qarang: 71a-73a, 92a-95a, 108b-110b, 268b-269a.).

"Tuhfai xoniy" asarining tili juda murakkab bo'lib, mubolag'ali o'rinlar hamda murakkab arabizmlardan iborat bo'lganligi tufayli 1906 yili Yakkabog' bekligi hukmdori Jahongirbek biy dodxoh amri bilan Mirzo Abdulqodir Keshiy asar tilini soddalashtirib, uning muxtasar variantini tayyorlaydi (var.265b) [3].

Mang'itlar davriga oid tarixiy asarlarning yana biri Muhammadsharif ibn Muhammadnaqiyning "Tojut-tavorix" (Tarixlar toji) nomli asaridir. Uning nomi va ilmiy-adabiy merosi davr tazkiralari o'z aksini topgan [4]. Orif Muhammadsharif amir Haydar davrida yashagan, Buxoro madrasalaridan birida mudarrislik qilgan, she'riyat, tarix va adabiyot tarixi bilan mashg'ul bo'lgan [5].

Muhammadsharif o'z asarini Amir Haydar buyurtmasi asosida yozgani va hukmdorning unga ko'rsatgan iltifotidan mamnun bo'lganini ta'kidlaydi. Asardan biz u umrining oxirigacha Amir Haydar saroyida kotib bo'lib ishlagani (inshonavis bo'lgan), she'riyat bilan shug'ullangani (17b-18a) haqida bilib olamiz. Muhammadsharif Buxoro tarixnavisligida eng ko'p tarixnavislik (ilmi ta'rix va fanni axbor) haqida yozgan mualliflardan sanaladi. U tarix fanining ibtidosi Qur'on va Payg'ambarning iyhomi deb biladi. Uning fikriga ko'ra Qur'on va tarixning vazifasi tanbeh va ibrat olishdan iborat.

"Tojut-tavorix" asarining hozirga qadar oltita nusxasi ma'lum. O'zFASHI saqlanayotgan 9265 rakamli asar nusxasi Amir Haydarning 1215 yilda (m.1800) taxtga chiqqanidan keyin yozilgan. Y.Bregel, B.Bobonazarov kabi olimlar o'z tadqiqotlari orqali keyingi beshta nusxa aynan ushbu nusxadan ko'chirilganligini aniqlaganlar. Shu nusxalarda tashlab ketilgan voqealar ko'p, ya'ni Muhammad Doniyolbiy otaliq davri, Shohmurod hukmdorligi yoritilmay qolgan.

Muallifning mazkur asarni yozishdan maqsadi Amir Haydarning buyukligi va uning saltanati ulug'vorligini ko'rsatishdan iborat deyish mumkin. Muallif asarda bu xususda so'z yuritganidan so'ng "jahongir"ga barchani itoat va tobe bo'lishga chorlaydi. Muallif asarining tili murakkabligiga ta'na qiladiganlarga javob berib, uni "chiroyli so'zlarni ko'rsatish uchun yozmaganini" ta'kidlaydi (var.28a).

Mazkur asarda, "Tuhfai xoniyy"dan farqli o'laroq, muallif foydalangan bir nechta manbalar tilga olinadi. Biroq uning ba'zi manbalari qiyosiy solishtirish asosida aniqlangan. Muallif "Tojuttavorix" asarida "Jomi'ut-tavorix", "Zubdat ul-vuzaro", "Ravzatus-safo", "Ta'rix Rashidiy", "Ta'rix Nodiriy", shuningdek "Tuhfai xoniyy"dan foydalanganini ta'kidlaydi (var.162a, 332a). Muallif ulardan mo'g'ullar davri tarixi va genealogiyasini yozishda, Nodirshoh, Muhammad Rahimbiy, Doniyolbiy davrini yoritishda foydalangan deyish o'rinli. Biroq, aksincha shayboniylar, ashtarxoniylar va Amir Shohmurod davriga oid manbalarni tilga olmagan.

Mirzo Sodik Munshiy ham Buxoro tarixnavislari orasida o'zining nafaqat tarixiy asarlari bilan, balki doston, lirik asarlari va xronogramma (tarix)lari hamda Shohmurod va Amir Haydar saroyida kotiblik vazifasida faoliyat ko'rsatgani bilan ham shuhrat topgan.

Mirzo Sodik Munshiy haqida risola yozgan Usmon Karimov uning "Daxmai shohon", "Qazo va qadar", "Raf'i tumani ohugir", "Oshiq shudani darvesh ba duxtar", "Tavorixi manzum" kabi asarlarini o'rgangan [6].

Mirzo Muhammad Sodik Jondoriy 1753-1758 yillar oralig'ida, Buxorodan 1,5 farsah keladigan Jondor qishlog'ida dunyoga kelgan. Taxallusi "Sodik" bo'lgan. Taxminlarga ko'ra, u Muhammad Doniyolbiyning xizmatida bo'lgan [6]. Mirzo Muhammad Sodik Amir Shohmurod va Amir Haydar davrida ularning saroyida munshiy bo'lgani aniq. Buni muallif asarlari, hamda zamondoshlarining bergan ma'lumotlari tasdiqlaydi. Mirzo Sodik haqidagi ishonchli ma'lumotni Muhammadsharif "Tojuttavorix" asarida ham keltirilgan.

Mirzo Sodik 1235 yilda (m.1819/20) Buxoroda vafot etgan.

Mirzo Sodik Munshiy lirik asarlardan tashqari "Tavorixi manzum", "Daxmai shohon" va "Futuhoti amiri Ma'sum va amir Haydar" nomli tarixiy asarlar muallifidir. Bu asarlardan faqat "Daxmai shohon" (Podsholar daxmasi) Usmon Karimov tomonidan o'rganilgan, xolos.

Anke fon Kyugelgen Mirzo Sodik Munshiy tarixiy jarayonlar yozishdagi mahoratini tan olib uni "xronogrammist" deb ataydi. Shu mahorati bilan u boshqa tarixchilaridan farq qiladi, deydi olim [5].

Bu davrga oid keyingi tarixiy asar Miriy – Mir Husayn ibn Shohmurodning "Maxozin at-taqvo" (Taqvo xazinasi) asaridir. U 1200 (m.1785/86) yili Buxoro amiri Shohmurod oilasida tug'ilgan[7]. U haqidagi ayrim ma'lumotlar Fazliy Namangoniyni "Majmuatush-shuaro"sida keltiriladi[5]. Biroq asosiy ma'lumotlar uning o'z asari "Maxozin at-taqvo"da jamlangan. Uning onasi "Shayxi Ko'lobiy" nomi bilan mashhur bo'lgan G'ani Maxdumning to'ng'ich qizi bo'lgan. G'ani Maxdum (vaf.1174/1760-61 y.) zamonasining naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining murshidlaridan biri bo'lgan. Mir Husayn (taxallusi Miriy) onasini "Ka'bam" deya, uning ma'sumlighi va kamtarligini maqtaydi. U onasini Shohmurod juda yaxshi ko'rganini, undan uzoq vaqt ajramaganini, biroq u saroydagi fitna qurboni bo'lganini ta'kidlaydi[7]. Miriy olamga kelgan yili otasi Shohmurod taxtga ko'tarilganini, u ishtirok etgan amir yurishlari doim muvaffaqiyat bilan yakunlanishini "foli nek" deb, talqin qilgan[7].

Shohmurod vafotidan keyin Mir Husaynning taxt vorisi bo'lgan Amir Haydar bilan munosabatlari taranglashib qoladi.

Miriy o'z asarida nafaqat siyosiy maqomi, balki o'zining diniy dunyoqarashi va ma'naviy tarbiyasi haqida ham ma'lumot beradi. U o'zini sunniy mazhabidan ekani, fiqhda Abu Hanifa mazhabida, iymonda Moturidiy va ruhoniyyati naqshbandiy ekanini ta'kidlaydi[7].

Miriy qalamiga mansub "Maxozin ut taqvo" asari xususida gap ketganda avvalo uning diniy-tasavvufiy mazmundagi asar ekanligini qayd etgan holda, unda ba'zi tarixiy voqealarning ham aks etganini kuzatish mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar (D.G.Voronovskiy)ning xulosasiga ko'ra, "Maxozin ut taqvo" teologik asar. Akademik V.V.Bartold esa uni avtobiografik asar deb,

“shubhasiz uni Turkistonning XVIII asrning ikkinchi yarmi-XIX asrning boshlari uchun juda muhim manba deb hisoblash lozim”[8] – deb ta’kidlagan.

**Tahlil va Muhokama (Analysis and Discussion).** Biroq tahlillar shuni ko’rsatadiki, “Maxzan ut-taqvo” teologik asar bo’lishi bilan birga, unda tarixiy voqealar va zamonasining tasavvuf shayxlari haqida avtobiografik ma’lumotlar keltirilgan. Shuning uchun uning “Buxoro tarixiga oid taqvo xazinasi” deya nomlanishi asar mazmuniga mos keladi.

“Maxzanut-taqvo” asarida hozirgi davr tarix ilmi darajasida shayx va murshidlarning tarjimai hollari, sulolalar va hukmdorlar tarixi, diniy va ilohiyotga oid bilimlar bayon qilinadi.

“Zikri te’dodi podshohoni o’zbek” (O’zbek shohlari navbatlarining zikri) Muin ismli muallifga tegishli. Asardagi ikkita xronogramma-ta’rixda shu taxallus kelgan. Ulardan biri o’zbek tilida, ikkinchisi fors-tojik tilidagi amir Nasrullohga atalgan asar xotimasidagi munojotdir[9].

Muin asarini tavsif qilgan akademik D.Yusupova va R.Jalilova bu asarni qaysi bir noma’lum muallif yozganini, undagi XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshlarida yashagan shoir Muinga tegishli ikkita ta’rix iqtibos qilingani muallifga aloqasi bo’lmaganiga ishora qilganlar[10]. Bizningcha, buxorolik shoir va muarrix bir kishi bo’lishi mumkin. Har holda asarda keltirilgan turkiy (o’zbek) tilidagi ta’rix muallifning o’zbek bo’lganligini isbotlaydi. Uning fors-tojik tili juda sodda va ba’zan shevadagi so’zlari ham uchraydi. Saroy tarixchilari Qozi Vafo va Muhammadsharif asarlariga nisbatan uning asarida arabizm, istiora va kinoyalar kamroq ishlatilgan. U har doim ham turli sinonimlarni suisti’mol qilishdan qochadi. Qur’on oyatlari, hadislar, fors-tojik mumtoz adabiyot namoyandalari asarlaridan ko’p ma’lumot keltirmagan. Asarda bob va bo’limlarning nomlari yo’q. Bir voqea ikkinchi voqea bayonidan mutrib, mug’anniy, soqiyga bo’lgan murojaati bilan ajraladi. “Biyo mutrib, bizan changu bixon afsonaam”[9] misralari bilan bir hikoyadan ikkinchisiga o’tganiga ishora qilinadi. Muin asari tilining soddaligi, bayonining aniqligi ko’rsatadiki, u kotiblik va insho bobidagi bilimlarga ega bo’lmagan.

Muinning “Zikri te’dodi podshohoni o’zbek” asari sof siyosiy tarix sanaladi. Asarda qo’zg’olon va ularning mag’lubiyati bo’rttirib ko’rsatilsa ham, u oxir-oqibat hukmdor ustunligi bilan tugaydi. Muin ba’zi hukmdorlar faoliyatini tahlil qilishdan qo’rqmaydi, biroq ularning faoliyatiga baho ham bermaydi. U Ashtarxoniylar davridan boshlab amir Nasrullohgacha voqealarni xronologiya bo’yicha bayon qiladi. Nodirshoh lashkarini ayblashdan o’zini tiyadi. Shohmurodni ham diniy siyosati uchun maqtamagan. Uning tarixiy voqelar bayonida so’fiylar qatnashmaydi, u diniy mavzuga juda kam murojaat qiladi. Asarda sanalar bir tartibda kelgan. Voqealarning mantiqiy yakuni hukmdor vafoti, unga berilgan tavsif va hukmronligi usulining bayoni bilan tugaydi. Shuning uchun amir Nasrullohning taxtga kelishi (aprel 1827 yili) bilan asar tugagan. Muallif, kimdir uni davom etiradi degan fikr bilan asarini intihoga yetkazmasdan olamdan o’tgan bo’lishi ham mumkin.

Muhammad Yaqub Amir Doniyolbiy otaliqning o’n ikkinchi farzandi bo’lib, “Gulshanul-mulk” asarining muallifidir. Muallif va uning asarini sho’rolar davrida V.Voronovskiy monografik planda tadqiq etgan (1952 yil). Biroq, olimning avtoreferatidan tashqari dissertatsiya va asar tarjimasi yo’qolgan[10]. Ma’lumotlarga qaraganda, Muhammad Yaqub oddiy fuqaro sifatida yashagan va otasining boshqa farzandlari qatorida katta shon-shuhrat va boylikka, mansablarga ega bo’lmagan. Shunisi ma’lumki, u harbiy xizmatchi sifatida Amir Nasrullohning ilg’or otliqlari safida tilga olingan[11]. Uning tarjimai holiga oid boshqa ma’lumot hozircha yo’q.

Shu o’rinda mang’itlar davri tarixi Xorazm tarixnavislari, xususan, Qo’qon tarixnavislik maktabi vakillari tarafidan ham o’rganilgan. Bu qatlamdagi asarlarda, asosan, Buxoro bilan qo’shni davlatlarning o’zaro munosabatlari, tashqi va siyosiy, harbiy muammo va mavzular ko’proq yoritilgan. Jumladan, Qo’qon tarixchilaridan Muhammad Hakimxon va Avaz Muhammad Attor Xo’qandiy asarlarida mang’itlar hukmronligi davri batafsil yoritilgan deyish mumkin.

«Muntaxabut-tavorix» asari va uning muallifi Muhammadhakimxon haqidagi ma’lumotlar asosan shu asardan olingan bo’lib, bu ma’lumotlar A.A.Semyonov, A.Qayumov, A.Muxtorov, B.Ahmedov, E.Xurshut kabi olimlar tomonidan umumlashgan holda o’rganilgan.

Yuqoridagi olimlardan akademik Aziz Qayumov bir necha marta Muhammad Hakimxonning «Muntaxabut-tavorix» asarini «Boburnoma» bilan tenglashtirgani ma’lum[12].

Qo‘qon tarixnavislik maktabida shoir, kotib va tarixchi Avazmuhammad Attor ibn Mullo So‘fi Muhammad Attor Xo‘qandiy o‘zining serqirra ijodi bilan katta iz qoldirgan.

Bu asarda Avazmuhammad Attor Sharq tarixnavislik an‘analariga rioya qilib, umumjahon tarixini yoritgan.

Asardagi “Mang‘itiya sulolasining Buxoroda hukmronligi (743a-802a) davri Buxoro tarixchilari asarlarini ham jalb qilgan holda yozilgan. Undagi mang‘itlar sulolasining davlat tepasiga kelishi, birinchi mang‘it hukmdorlari, shuningdek Amir Haydardan boshlab Amir Muzaffargacha bo‘lgan voqealar, ayniqsa Qo‘qon xonligi bilan aloqador tarixiy voqealar haqida qiziqarli tarzda bayon etiladi. Ushbu asar “Tarixi Xumuliy”dan farqli ravishda Amir Haydar davriga qadar bo‘lgan tarixiy voqealarning muxtasar bayoni bilan cheklanganligini qayid etmoq joiz. “Tarixi Xumuliy” asarida esa mang‘itlarning tarix sahnasiga kirib kelishi hamda mang‘it hukmdorlarining faoliyati va amirlik hayotining sharhiga katta o‘rin ajratilgan. Shuningdek, “Tarixi Xumuliy”da mang‘itlarning diplomatik aloqalariga oid ma‘lumotlar muxtasar shaklda bayon etilgan. Bundan tashqari “Tarixi Xumuliy”da Amir Shohmurod shaxsiyati, hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ma‘lumotlar hajman katta sahifalarni egallashini alohida qayd etmoq joiz.

#### **Manbalarni o‘rganishdagi qiyinchiliklar:**

- Subyektivlik: Mahalliy manbalar mualliflarning shaxsiy pozitsiyasi, saroyga yaqinligi yoki muxolifatda bo‘lganligi sababli subyektiv xususiyatga ega.
- Ma‘lumotlar yetishmasligi: Ba‘zi muhim sohalar, masalan, oddiy xalqning turmush tarzi, iqtisodiy statistik ma‘lumotlar haqida kam ma‘lumot berilgan.
- Xorijiy manbalardagi xatolar: Chet ellik sayyohlar va diplomatlarning ma‘lumotlarida ba‘zan madaniy tushunmovchiliklar, til bilmaslik yoki siyosiy maqsadlardan kelib chiqqan xatolar uchraydi.

**Xulosa (Conclusion).** Mavzu tarixshunoslik va manbashunoslik tahlillariga asoslanadi. Shunga ko‘ra mavjud adabiyotlarni ular yozilgan davrlarga qarab, bir necha guruhlariga turkumlashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ulardan **birinchi guruh** – Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida yozilgan asarlar, **ikkinchi guruh** – sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar, **uchinchi guruh** – mustaqillik davrida yozilgan asarlar va **to‘rtinchi guruh** – xorij olimlari qalamiga mansub adabiyotlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

**Birinchi guruhga** oid adabiyotlar XVIII asr – XX asrning boshlarida ro‘y bergan tarixiy voqealarning bevosita guvohlari tomonidan yaratilganligi bilan ajralib turadi. Ularni mansubligiga qarab ikki qismga, ya‘ni o‘zbek xonliklarining tarixnavislik maktabi muarrixlari va Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri tarixchilari bergan ma‘lumotlarga ajratish mumkin. Tadqiqotda Buxoro amirligi tarixnavisligi vakillari tomonidan mahalliy tillarda yaratilgan asarlardan yozma manba sifatida foydalanilgani uchun ular haqida ishning manbaviy asoslari qismida batafsil to‘xtalib o‘tiladi.

Sovet davrida ham mazkur mavzuga oid qator ilmiy adabiyotlar yaratildi, ana shular **ikkinchi guruhni** tashkil qiladi. Biroq, ularning asosiy qismida amirlik tarixi, undagi siyosiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar shu davrdagi hukmron markscha-lenincha mafkura g‘oyalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda yoritilgan..

**Uchinchi guruhni** O‘zbekiston mustaqilligi davrida yaratilgan o‘zbek xonliklarning tarixiga oid turkum adabiyotlar tashkil etib, amirlik, jumladan amir Nasrulloh davri ma‘lum jihatlarini ilmiy xolislik, tarixiylik nuqtai nazaridan tadqiq etish boshlandi.

**To‘rtinchi guruh** xorijiy tillardagi adabiyotlar turkumini M.Oldvort, B.Mans, Y.Bregel, S.Livay, L.Neybi va boshqalarning asarlari tashkil qiladi. Bu turkum asarlar va yangi jalb qilinadigan manba va asarlar mavzuni har tmonlama o‘rganishga madad beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Фон Кюгельген А. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (). – Алматы: Дайк-пресс, 2004. – 519 с.

2. Муҳаммадвафои Карминаги. Тўҳфатул-хони / Муқаддима, таҳияи матн, нусхабадал, таълиқот ва феҳристҳои Ҷамшед Ҷӯразода ва Нурулло Ғиёсов. – Хучанд: “Нури маърифат”, 2018. – С.3-16.
3. Тухфаи хоний // ЎзФАШИ фонди, № 2726/III. – 229 вар.
4. Ходизаде Р. Источники по изучению таджикской литературы второй половины XIX века. – Сталинабад, 1956. – С.117 ва кейингилари.
5. Кюгельген Анке. Легитимация...– С. 129.
6. Каримов У. Мирзо Содиқи Мунши (Аҳвол ва осор). – Душанбе, 220 с.
7. Маҳзан ут-тақво, вар 316-32а, 2956-2966.
8. Бартольд В. В. Занятия. – С.459.
9. Муин. Зикри теъдоди подшоҳони ўзбек. // Қўлёзма, ЎзФАШИ, № 4468/IV. – С.158а,б.
10. СВР. История. – С.219. № 1556.
11. Муҳаммад Яъқуб. Гулшанул-мулк // Қўлёзма, РФ Санкт –Петербургдаги Қўлёзмалар институти фонди, № 1934. Вар.20б.
12. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик (шаклланиши)... – Б. 102